



TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI

ISSUES OF ENSURING THE COMPETITIVENESS OF COMMERCIAL BANKS

¹**Qurbonov Ergash
Rustamovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
E-mail: qurbanov@mail.ru*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishning zarurligi, mohiyati va hozirgi zamon muammolari tadqiq etilgan. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholashda xalqaro reyting agentliklari tomonidan qo'llaniladigan tizimning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ko'rsatmalari asosida qo'llanishi bilan bog'liq ustunliklar hamda o'ziga xos xususiyatlar o'rganilgan. Shuningdek, ushbu tizimning O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article explores the necessity, essence, and contemporary challenges of enhancing the competitiveness of commercial banks. It examines the advantages and specific features of applying the assessment systems used by international rating agencies in accordance with the guidelines of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the study analyzes the feasibility of implementing this evaluation system in the operations of Uzbek commercial banks and develops relevant policy recommendations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *bank tizimi, tijorat banklari, banklararo raqobat, Markaziy bank, xalqaro reyting agentliklari.*

❖ *banking system, commercial banks, interbank competition, Central Bank, international rating agencies.*

Kirish.

Hozirgi kunda milliy moliya bozorini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning kuchayishi va jahon miqyosidagi iqtisodiy sanksiyalar shartlarining og'irlashuvi sharoitida milliy banklar murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Ularning likvidligini ta'minlashga, bir tomondan, banklararo raqobat, ikkinchi tomondan esa bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, "2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh

qilish strategiyasi"da mamlakat bank sektorini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy mezon va ko'rsatkichlar belgilab berilgan [1].

Milliy moliya bozorida banklararo raqobatning kuchayishi O'zbekiston Respublikasida moliya sektori agentlari, mintaqalar va bank xizmatlari provayderlari manfaatlarini uyg'unlashtirishga asoslangan raqobatbardosh bank tizimini rivojlantirishning yangi modellarini joriy etishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda banklar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qisqa

vaqt va minimal xarajatlar bilan erishish uchun, odatda, banklararo raqobatbardoshlikni oshirishning uchta asosiy yo'nalishiga e'tibor qaratadilar: mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish; ichki ish jarayonlarini optimallashtirish; xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish, ularni uzluksiz tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Ushbu sohadagi doimiy izlanishlar sharoitida asosiy e'tibor moliyaviy raqobatbardoshlik nuqtai-nazaridan eng istiqbolli hisoblangan bank tuzilmalarining moliyaviy natijalariga qaratiladi. Biroq, banklararo raqobatda banklarning barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi nafaqat bankning moliyaviy modeliga, balki boshqaruv jarayonlariga ham bog'liq. Shu munosabat bilan banklararo raqobat muammolari tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish ustuvor bo'lgan milliy moliya tizimini tarkibiy isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida ayniqsa dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash tizimining metodologik masalalari xorijlik iqtisodchi-olimlar О.Лаврушин, Л.Батракова, О.Жилан, М.Ковалев, А.Осмоловский, П.Роуз, Э.Родэ, О.Семибратова, Л.Падалкина, К.Кэмпбеллarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan [2, 3, 4, 5].

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Omonov, T.Qoraliyev, U.Ortiqov, B.Babaev, Sh.Ro'zmetov, J.Isaqov, G.Maxmudovalarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarishda samaradorlik masalalari tadqiq etilgan [6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13].

Yuqoridagi iqtisodchi-olimlar tomonidan tijorat banklari faoliyati umumiy holda o'rganilgan. Lekin Yangi O'zbekistonda banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari raqobatbardoshligini ta'minlashning istiqbollari o'rganilmagan va tahlil etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, tasniflash, mantiqiy usul, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Xususan, tarkibiy va tizimli tahlillardan foydalangan holda bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari tasniflanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmonida "...moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, banklarda xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilab berildi [1].

Agar 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida 28 ta tijorat banklari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yil boshida ularning soni 36 tani tashkil etdi. Ushbu banklarning barchasi an'anaviy bank xizmatlarini taqdim etadi. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

2025-yil boshiga O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari to'g'risida ma'lumotlar (mlrd. so'm)

T/r	Bank nomi	Aktiv	Kredit	Kapital	Depozit
	Jami	751 736	525 887	112 989	297 396
	Davlat ulushi mavjud banklar	497 436	363 939	70 183	150 648
1	Milliybank	135 399	107 289	18 837	37 844
2	O'zsanoatqurilish	86 805	63 996	9 639	18 834
3	Agrobank	77 126	59 641	12 398	18 885
4	Asaka bank	57 314	38 206	6 636	15 483
5	Xalq bank	46 194	30 045	7 992	23 926
6	Biznesni rivojlantirish banki	33 017	22 696	5 325	10 573
7	Mikrokredit bank	24 070	17 703	4 829	7 396
8	Aloqa bank	20 244	11 862	2 609	12 538
9	Turon bank	17 267	12 501	1 919	5 169
	Boshqa banklar	254 300	161 948	42 806	146 747
10	Ipoteka bank	50 737	34 437	7 400	24 352
11	Kapital bank	45 730	30 937	5 361	35 299
12	Hamkor bank	26 933	18 994	5 044	10 929
13	Ipak yo'li bank	22 848	14 205	3 571	11 196
14	Orient Finance bank	16 205	12 330	3 012	10 475
15	Infinbank	11 668	7 585	1 382	8 589
16	KDB	10 739	3 292	1 804	6 040
17	Trastbank	10 404	5 617	2 829	7 096
18	Davrbank	9 034	6 834	1 365	3 574
19	Anorbank	8 975	6 678	988	7 630
20	TBC bank	8 931	6 885	2 017	4 666
21	Asia Alliance bank	7 352	3 723	1 115	5 567
22	Tengebank	6 681	3 847	1 285	2 170
23	Ziraatbank	4 034	2 058	654	1 963
24	Oktobank	3 075	49	698	2 051
25	Universalbank	3 017	1 492	575	2 116
26	Garantbank	1 931	839	350	1 096
27	Hayotbank	1 355	833	303	974
28	Uzumbank	827	78	474	62
29	Apexbank	791	192	336	345
30	Madad invest bank	641	334	437	91
31	Saderat bank	562	16	498	51
32	AVO bank	459	248	436	16
33	Smart bank	452	20	354	75
34	Poytaxtbank	424	286	175	177
35	Yangi bank	322	140	173	147
36	YevroOsiyo banki	174	0	172	0

Milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bevosita moliya institutlarining raqobatbardoshlik darajasi bilan bog'liq [16]. Banklararo raqobat – bu moliya institutlari tomonidan bank xizmatlari bozorida ustun mavqega ega bo'lish maqsadida cheklangan moliyaviy resurslar, mijozlar bazasi, innovatsion texnologiyalar va yuqori sifatli biznes jarayonlarini jalb etish va rivojlantirish orqali raqobat muhitini shakllantirish jarayonidir.

Bank raqobatbardoshligini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida bozor ulushi, rentabellik darajasi (foyda ko'rsatkichi) va moliyaviy barqarorlik holati e'tirof etiladi. Ayniqsa, bozor ulushi raqobatbardoshlik darajasini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich ikki asosiy funksiyani bajaradi:

bankning ayni paytdagi maqsadli bozorga yoki bozor segmentiga muvaffaqiyatli xizmat ko'rsatayotganini aks ettiradi;

bankning raqobat ustunliklarini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Raqobatbardoshlik darajasining o'sishi, albatta, bankning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichning dinamikasi (ya'ni o'sish yoki pasayish sur'ati) bankning raqobatbardoshlik darajasini belgilashda va uning strategiyasining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega [14].

P.Kolesovning fikriga ko'ra, bank faoliyati bir qator muhim omillar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bular qatoriga bankning reputatsiyasi (mavqei, obro'si), ustav kapitalining miqdori, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, valyutaviy yoki general (bosh) litsenziyaning mavjudligi, mijozlarning barqaror bazasi, rivojlangan muxbirlik tarmog'i, taklif etilayotgan to'lov tizimi va bank mahsulotlari ro'yxati, filiallar va bo'linmalar tarmog'ining mavjudligi hamda uning kengayish dinamikasi, samarali reklama siyosati, xodimlarning malakasi, samarali

boshqaruv tizimi va bankning ish tajribasi kiradi [15].

Bankning moliya bozorida raqobatlashish qobiliyati bank mahsulotining raqobatbardoshligi, shuningdek, raqobat natijalariga ta'sir ko'rsatadigan tadbirkorlik faoliyati doirasi bilan bevosita bog'liqdir.

Bankning raqobatbardosh bozordagi mavqeini aniqlash, shuningdek, uning ishonchliligi va samaradorligini baholashda bank foydasi va rentabellik darajasi, ustav kapitali va zaxira mablag'lari hajmi, aktivlar va passivlar tarkibi, kreditlar hamda depozitlarning bozordagi ulushi, vakolatli bitimlar soni, foiz stavkalari darajasi va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bankning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash, shuningdek, moliyaviy barqarorlik reytinglaridagi o'rnini belgilashda asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi [18].

Zamonaviy bank faoliyatida raqobatbardoshlik, samaradorlik va moslashuvchanlikka intilayotgan har qanday moliyaviy muassasa mijozlarga yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha aytganda, bank mijoz bilan o'zaro aloqaning har bir bosqichida uni qo'llab-quvvatlashi, mijoz ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishi, shuningdek, mijozlarni jalb qilish, ularni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan strategik vazifalarni o'z vaqtida va samarali hal qilishi lozim.

Agar mijozlar bank faoliyati, xususan, sof aktivlar hajmi va daromadlar dinamikasi to'g'risida ishonchli, tizimli va doimiy axborotga oson va arzon shaklda ega bo'la olsalar, ularning bankka nisbatan ishonchi mustahkamlanadi. Bankka bo'lgan ishonch darajasi esa quyidagi model asosida ifodalanishi mumkin:

Ishonch = sof aktivlar + daromad barqarorligi + ma'lumot sifati (1)

Bu yerda barcha bog'liqliklar bevosita xarakterga ega bo'lib, quyidagi uchta omil – bank xizmatlari hajmining kengayishi, yalpi daromadning barqarorligi hamda axborot

infratuzilmasining rivojlanganligi – mijozlarning bankka nisbatan sodiqligini oshishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, mijozlarga qulaylik darajasini ifodalovchi model quyidagi formula asosida ifodalanadi [5]:

Qulaylik = bozor geografiyasi + mahsulotlar (xizmatlar) assortimenti + xarajatlar + sifat (2)

Bank faoliyatining geografiyasi kengaygani, xizmat sifati oshgani hamda ko'rsatilayotgan mahsulot va xizmatlar ro'yxati boyigani sari, bankning mijozlar uchun jozibadorligi ham ortib boradi. Shu bilan birga, bozorda yangi yoki mavjud bank mahsulotining muvaffaqiyati (yoki muvaffaqiyatsizligi)ga bir qator boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Ularga bankning marketing faoliyati, imidji, taklif qilinayotgan xizmatlar darajasi va boshqa jihatlar kiradi. Biroq, yuqorida sanab o'tilgan omillarning bank faoliyatidagi raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi ahamiyatiga qaramay, mahsulot va xizmatlarning sifati hamda narxi birlamchi, hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shu sababli, bank faoliyatining raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi formulani quyidagicha ifodalash mumkin [17]:

Raqobatbardoshlik = sifat + bank mahsulotining narxi + xizmat darajasi (3)

Banklarning raqobatbardoshligini o'lchashning turli usullari mavjud. Shunday qilib, N. Gerchikova bank raqobatbardoshligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni inobatga olishni taklif etadi: birinchidan, alohida turdagi mahsulotlar (xizmatlar) va aniq bozorlar uchun ham real va istiqboldagi investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj; ikkinchidan, raqobatbardosh mahsulotlar ro'yxati, ularning tarkibi, hajmi va tannarxi (ya'ni, "mahsulotni farqlash"); uchinchidan esa, har bir mahsulot bo'yicha bozorlarning tuzilishi yoki ularning segmentlari (ya'ni, "bozorni farqlash") [17].

Bankning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash uchun uning mavqeini ma'lum bir bozordagi mavjud raqobatchilar bilan

taqqoslash kerak. Bankning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash uchun uning bozordagi mavqeini mavjud raqobatchilar bilan taqqoslash zarur. Shuningdek, bank xizmatlari bozoridagi mavqeni mustahkamlashda xalqaro reytinglar ham muhim rol o'ynaydi.

Xususan, Fitch banklarning likvidligini shunday tavsiflaydi. Emitentning standart reytinglari defolt ehtimolining nisbiy bahosini ifodalaydi. Qisqa muddatli kredit reytinglari majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish ehtimolini ko'rsatadi [17].

Reyting agentliklarining usullari odatda bir qator ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Reyting agentliklari nafaqat bankning likvidligi, aktivlar sifati, xatarlar va ularni boshqarish darajasi, javobgarlik tarkibi, kapitalning yetarliligi va rentabelligini baholaydi, balki uning bozordagi mavqeini ham hisobga oladi. Bu baholashda bozor hajmi ko'rsatkichlari, faoliyat geografiyasi, ixtisoslashuv darajasi hamda mijozlar bazasi kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, bank boshqaruvi – ya'ni korporativ boshqaruv tizimi, hisobotlarning sifati va tashkiliy tuzilmasi ham reyting mezonlaridan biri hisoblanadi.

Bankning kreditga layoqatliligini baholashda faqat moliyaviy barqarorlik yetarli bo'lmagan holatlarda mulkdorlar yoki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyati ham muhim omil sifatida qaraladi. Ayrim hollarda reyting agentliklari Rossiya kabi bozorlar uchun o'ziga xos baholash mezonlaridan ham foydalanadilar. Masalan, Fitch agentligi bankning derivativ portfeli va sek'yuritizatsiya operatsiyalarini kreditga layoqatlilikka ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, banklarning qarz berish qobiliyatiga umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tartibga solish va nazorat qilish tizimi, siyosiy omillar hamda milliy qonunchilikning o'ziga xos jihatlari ham ta'sir qiladi. Ushbu reytinglarning asosiy maqsadi – tashqi qo'llab-quvvatlash ehtimolini inobatga olmagan holda bankning ichki barqarorlik va

pozitsiyalarini baholashdan iboratdir (2-jadval).

2-jadval

Banklar reyting darajalari va ularning tavsifiy xususiyatlari [16]

Baho	Ta'rifi	Tavsif
«A»	Mutloq barqaror bank	Yuqori rentabellik, shaffoflik va balansning barqarorligi; katta mijoz bazasi; yuqori sifatli menejment; qulay iqtisodiy muhit va rivojlanish istiqbollari.
«B»	Barqaror bank	Xavotirlanishga sabab bo'luvchi omillarning sezilarli darajada mavjud emasligi; yetarli rentabellik, shaffoflik va balans barqarorligi; katta mijozlar bazasi va yuqori menejment sifati; qulay iqtisodiy muhit va rivojlanish istiqbollari.
«C»	Yetarli darajada barqaror bank	Rentabellik, shaffoflik va balans barqarorligi, mijozlar bazasi hajmi va boshqaruv sifati, iqtisodiy muhit yoki rivojlanish istiqbollari haqida tashvish tug'diradigan bir yoki bir necha omillar mavjud.
«D»	Ichki va/yoki tashqi omillar bilan bog'liq kamchiliklari mavjud bank	Rentabellik, balans shaffofligi va barqarorligi, mijozlar bazasi va boshqaruv sifati, iqtisodiy muhit yoki rivojlanish istiqbollari haqida xavotirlar mavjud.
«E»	Jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bank	Faoliyat samaradorligining past ko'rsatkichlari; tashqi qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Reytinglarni belgilashda banklarning miqdoriy ijobiy va salbiy xususiyatlari, jumladan balans yaxlitligi, rentabellik va xatarlarni boshqarish darajasi hisobga olinadi.

Umuman olganda, reyting agentliklari tomonidan berilgan kredit reytinglari bank barqarorligining eng ommaviy va keng tarqalgan ko'rsatkichidir. Kredit reytinglari qarz beruvchi yoki investorga investitsiya qilinayotgan moliyaviy risk darajasi haqida ma'lumot beradi.

Kredit reytinglari, avvalo, banklarning majburiyatlarini tashqi resurslar hisobidan qanday qondirishi mumkinligini tavsiflaydi. Shuningdek, ular bank tuzilmalari barqarorligini izohlovchi hujjat bo'lib, investorlarga qo'yilayotgan mablag'larning risklilik darajasi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Yuqori reyting bankning kapital va boshqa resurslarga kirishidagi to'siqlarni olib tashlash imkonini beradi. Shu sababli, menejment va jamoatchilik uchun kredit reytinglari bank faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Banklararo raqobat — bu moliyaviy va bank xizmatlari bozorida yuqori ulushga ega bo'lish maqsadida cheklangan moliyaviy resurslar, mijozlar, innovatsion bank texnologiyalari hamda yuqori sifatli biznes jarayonlarini kengaytirish va jalb qilish asosida moliya institutlari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish jarayonidir.

Bankning raqobatbardoshligi tijorat banklari va kredit tashkilotlari o'rtasidagi dinamik jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi bank va moliya xizmatlari bozorida mustahkam mavqega ega bo'lishdir.

Yangi O'zbekistonda banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yaqin istiqbolda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- 2025-yil yakuniga qadar bank tizimi aktivlaridagi nodavlat ulushini 15 foizdan 60 foizgacha oshirish;

- majburiyatlarning umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi bank majburiyatlari ulushini 28 foizdan 70 foizgacha yetkazish;

- davlat ulushi mavjud banklarga kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb etish;
- shuningdek, kreditlashdagi nobank kredit tashkilotlari ulushini 0,35 foizdan 4 foizgacha oshirish.

Shunday qilib, O'zbekistonda banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon hamda sifatli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. 2020-yil 12-may.

2. Лаврушин О.И. и др. Банковское дело/ учебник. Москва. КНОРУС, 2016 – 795с.

3. Коммерческие банки и их операции. – М.: Банки и биржи, 2015. – 311 с.

4. Роуз П.С. Банковский Менеджмент. Пер. с англ. – 5-изд. М.: Дело: 2017. – 768с.

5. Семибратова О.И. Банковское дело. М.: Академия, 2014. – 218с.

6. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya", 2017-732 b.

7. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b.

8. Omonov A.A, Qoraliev T.M "Pul va banklar" Darslik. T.: – "Iqtisod-moliya", 2019-y. – 461 b.

9. Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. "Moliya, pul muomalasi va kredit" i.f.n. diss. avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – 19.09.2008. – T., 2008. -20 b.

10. Бабаев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использование. Автореф. дис...канд. эк. наук. – Ташкент: БФА. 2002. – 21 с.

11. Ro'zmetov Sh.B. "O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari". i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 26 b.

12. Исаков Ж.Я. Повышение эффективности кредита в развитии сферы оказания услуг: Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. Т., 2016. 79 с.

13. Махмудова Г.Н. Цифровизация банковской системы Узбекистана // Устойчивое развитие цифровой экономики, промышленности и инновационных систем (ЭКОПРОМ-2020) / Под ред. Д.Г. Родионова, А.В. Бабкина. СПб.: ПОЛИТЕХ-ПРЕСС, 2020. С. 380–383.

14. Бочкарев С.В. Формирование конкурентоспособной стратегии универсального банка // Проблемы современной экономики. – 2021. – №3 (31). – С. 218–222.

15. Колесов П.Ф. Конкурентоспособность и конкурентные преимущества российских банков на современном этапе развития // Экономика и менеджмент инновационных технологий. – 2019. – №5. – С. 28–33.

16. Факторы и показатели конкурентоспособности банка [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://zdos.ru/nauka/view_art.php?id

17. Герчикова Н.М. Банковский менеджмент. Учеб. для вузов. -3-изд. – М., "Инфра-М.", 2023. – 512 с.

18. Колесов П.Ф. Модель оценки конкурентоспособности коммерческого банка // Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, апрель 2023 г.). – СПб.: Реноме, 2023. – С. 77–81.